


XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs qilib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.






Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda

(2021- yil 1- yanvar holatiga)




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyatida 2020- yil maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 402 tani tashkil etdi, ushbu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan 42 taga ortgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalar soni jami 58 128 nafar, shundan, qizlar 28 277 nafarga yetdi, 2019- yilga nisbatan jami tarbiyalanuvchi bolalar soni 2 878 nafarga, shu jumladan qizlar 1 737 nafarga ko'paygan.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalarning tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishida (2021- yil 1- yanvar holatiga)




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyatida 2020- yil maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 7 354 nafarni, Qo 'shko'pir tumanida 7 000 nafarni va Xonqa tumanida 6 670 nafarni tashkil etgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (2 519 nafar) kuzatildi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jinsi bo'yicha tumanlar kesimida taqsimlanishi, % da (2021- yil 1- yanvar holatiga)






2021- yil 1- yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi bolalarning yosh bo'yicha taqsimlanishi, (kishi)

	Bolalar soni	1 yoshgacha (1 yoshni qo'shgan holda)	2 yosh	3 yosh	4 yosh	5 yosh	6 yosh	7 yosh va undan katta
Urganch sh.	7 354	-	54	984	1 730	2 196	2 383	7
Xiva sh	3 442	-	60	550	894	916	1 016	6
Bog'ot	3 444	-	39	368	627	873	1 537	-
Gurlan	5 583	-	-	923	1 229	1 397	2 013	21
Qo 'shko'pir	7 000	5	69	910	1 440	1 866	2 710	-
Urganch	3 903	-	2	561	891	1 139	1 308	2
Hazorasp	2 609	-	35	328	535	673	1 038	-
Tuproqqal'a	2 519	-	-	506	618	710	685	-
Xonqa	6 670	-	2	1 100	1 504	1 628	2 436	-
Xiva	3 511	-	-	453	741	886	1 431	-
Shovot	5 356	-	-	741	1 013	1 291	2 256	55
Yangiariq	2 940	-	3	411	691	830	997	8
Yangibozor	3 797	-	13	637	882	1 047	1 217	1

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog- xodimlarning tumanlar kesimida taqsimlanishi, (kishida)




2021- yilning 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 5 783 nafarni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 924 nafarga ko'paygan. Ulardan 29,6 % oliy ma'lumotli, 70,4 % o'rta maxsus ma'lumotlilarni tashkil etadi.




Nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (2021- yil 1- yanvar holatiga)

Nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 68 ni tashkil etadi, 2019- yilga nisbatan ular soni 31 taga ko'paydi, tarbiyalanuvich bolalar soni 4 743 nafarni tashkil etib, 2019- yilga nisbatan 2 110 nafarga ko'paydi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari jami 394 nafarni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan 175 nafarga ko'paygan.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tumanlar kesimida taqsimlanishi, (birlikda)



Nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalar va pedagog xodimlarning tumanlar kesimida taqsimlanishi, (kishida)



2021- yil 1- yanvar holatiga tumanlar bo'yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha talim tashkilotlari bilan qamrab olinishi, % da

